

# **Mansurova Nigoraxon Rustamjonovnaning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to'g'risida**

**“Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy  
musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni  
rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”  
mavzusida**

**Mansurova Nigoraxon Rustamjonovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta'limi) ixtisosligi bo'yicha “Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 10-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

**Manzil:** 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 “A”-uy, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.

**Tel:** (+99871) 230-28-02; **faks:** (+99871) 230-28-15

**e-mail:** uzdsmi@madaniyat.uz

---

# **Sabirova Shaxnoza Shavkatovnaning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi to'g'risida**

**“San’at va madaniyat sohasi mutaxassislarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlardan ratsional foydalanish” mavzusida**

**Sabirova Shaxnoza Shavkatovnaning** 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san’atshunoslik) ixtisosligi bo’yicha “San’at va madaniyat sohasi mutaxassislarini tayyorlashda innovatsion yondashuvlardan ratsional foydalanish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 10 iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

**Manzil:** 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi, 127 “A”-uy, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “A” binosi, 2-qavat, majlislar zali.

**Tel:** (+99871) 230-28-02; **faks:** (+99871) 230-28-15

**e-mail:** uzdsmi@madaniyat.uz

---

# **“Madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirishda ijodkorlik va ijrochilik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi**

“Madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirishda ijodkorlik va ijrochilik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi

Mazkur anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamkorligida tashkil etildi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy markazlar, madaniyat va san‘at tashkilotlari vakillari bilan bir qatorda Rossiya, Turkiya, Xitoy, Ozarbayjon, Janubiy Koreya va Tojikiston kabi davlatlardan nufuzli professor-o‘qituvchilar, taniqli olimlar hamda soha mutaxassislari ishtirok etdi.

Anjumanning asosiy maqsadi – madaniyatlararo muloqot va integratsiya jarayonlarida ijodkorlik hamda ijrochilikning o‘rni va ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish, turli xalqlarning badiiy-estetik tajribalarini qiyosiy asosda o‘rganish hamda globallashuv sharoitida madaniy hamkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashdan iborat bo‘ldi.

Dastlab anjumanda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov hamda institut rektori Nodirbek Sayfullayevning ishtirokchilarga yo'llagan tabrik so'zlari o'rin oldi.

Shuningdek, yalpi majlisda Sergey Zengin (Rossiya), Mücahit Demir (Turkiya), Wang Jianhui, Xu Ran (Xitoy), Narmin Garalova, Sevil Kerimova (Ozarbayjon), Alisher Amini (Tojikiston) hamda Jin-Hwan Ra (Janubiy Koreya) kabi xorijiy ekspertlarning ma'ruzalari tinglandi.

Anjuman davomida madaniyatlararo integratsiya jarayonida ijodkorlik fenomenining ilmiy asoslari, an'anaviy va zamonaviy san'at shakllarining o'zaro ta'siri, folklor va musiqa san'atidagi zamonaviy tendensiyalar, milliy o'zlikni saqlash hamda madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Shuningdek, ochiq muloqot va ilmiy bahslar davomida madaniy hamkorlikni rivojlantirish, ijodiy almashinuvni kuchaytirish hamda xalqaro ilmiy integratsiyani kengaytirishga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.







